O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

ALLANBAYEV RUDAKIY ORINBAYEVICH

QORAQALPOQ MUSIQALI DRAMA SAN’ATINING TARIXIY ILDIZLARI, AN’ANA VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 792.03(575.172)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation

Allanbayev Rudakiy Orinbayevich
Qoraqalpoq musiqali drama san’atining tarixiy ildizlari, an’ana va zamonaviy tendensiyalari..... 3

Алланбаев Рудакий Оринбаевич
Исторические корни, традиции и современные тенденции каракалпакского музыкально-драматического искусства. 25

Allanbayev Rudakiy Orinbayevich
Historical roots, traditions, and contemporary trends of Karakalpak musical and dramatic art.. 50

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 54

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

ALLANBAYEV RUDAKIY ORINBAYEVICH

QORAQALPOQ MUSIQALI DRAMA SAN’ATINING TARIXIY ILDIZLARI, AN’ANA VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

17.00.01 – Teatr san’ati

SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/San375 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (dsmi.uz) hamda “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Rizayev Amanulla Zufarovich** san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Qodirova Sarvinoz Muhsinovna** san’atshunoslik fanlari doktori, professor
	Ismailov Anvar Xamdamjonovich san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti huzuridagi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “12” 11 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och dahasi 127-“A” uy. Tel.: (+99871) 230-28-02, faks: (+99871) 230-28-15, e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti axborot resurs markazida tanishish mumkin (62-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och dahasi 127-“A” uy. Tel.: (+99871) 230-28-58, faks: (+99871)230-28-15, email: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “19” 10 kuni tarqatildi.

(2026-yil “19” 10 dagi 29 raqamli reyestr bayonnomasi).

M.T.To‘laxo‘jayeva
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, san’atshunoslik fanlari doktori, professor

A.T.Kurbanova
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A.Umarov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globallashuv, informatsion, transformatsion jarayonlar teatr san'ati, xususan musiqali dramalarning mazmun-mohiyati, mavzu va janr xususiyatlarining takomillashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy musiqali teatrlarda musiqali dramalar bilan yonma-yon, opera va myuzikllar ham rivojlanib, ularda muhabbat va qahramonlik motivlari bilan birga, ijtimoiy-maishiy mavzular ham badiiy-sahnaviy talqinlarda namoyon bo'lmoqda. Musiqali teatrlarda milliy an'analarni zamonaviy sahna yechimlari bilan uyg'unlashtirish, innovatsion rejissyorlik yondashuvlarini qo'llash va zamonaviy ijtimoiy mavzularning sahnaviy talqini dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon san'atshunosligida madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro muloqot, musiqali teatr san'atining transformatsion jarayonlari, G'arb va Sharq san'atining o'zaro sintezlashuvi, liboslarning zamonaviy dizayn bilan uyg'unlashuvi, shuningdek, musiqali teatrning o'ziga xos alohida individual qirralarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar ustuvorlik qilmoqda. Keng ma'noda, musiqali teatr san'atida milliy an'analar bilan birga, innovatsion, zamonaviy tendensiyalar ham kuzatilmoqda. Musiqali teatr san'atini zamonaviy ilmiy-metodologik yondashuvlar asosida o'rganish, innovatsion rejissyorlik yechimlari va raqamli texnologiyalarning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, musiqali spektakllarning badiiy-estetik va dramaturgik xususiyatlarini zamonaviy yondashuvlar asosida qayta baholash zarurati sezilmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida milliy musiqali drama san'ati ham o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilib, musiqali dramalarning tarixi, nazariy jihatlari, sahna talqinlari, mavzu va janr xilma-xilligiga erishilmoqda. "Bugungi kun nafasi, odamlarni o'ylantirayotgan, hayajonga solayotgan, jiddiy ijtimoiy muammolar aks etgan sahna asarlarini yaratish teatr ijodkorlari oldida turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi"[1]. Shu ma'noda, qoraqalpoq musiqali drama san'atining o'ziga xos xususiyatlari, asosiy yo'nalishlari, dramaturgiya, rejissura, musiqa va aktyorlik san'atida yuzaga kelgan ijodiy tajribalarni aniqlash, ilg'or namunalarni targ'ib qilish ustuvorlik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O'RQ-668-son "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-iyundagi PF-103-son "Madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2026-yil 21-apreldagi PQ-150-son "Madaniyat va san'at sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. // "Xalq so'zi", 2017, 4-avgust. 153-son (6847). – B. 2.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Teatr san’atining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha jahon teatrshunoslik ilmida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, xorijlik tadqiqotchilardan Y.Çetin, J.Diamond, M.İ.Gürtunca, E.Kafetzi, V.Lu, E.Risley, P.Rumsey, K.Saroh, L.Szyaxuey, D.Whittaker, D.Yao kabilar musiqali teatrdagi badiiy va ijtimoiy-tanqidiy tendensiyalar tahlili, musiqali teatrda raqs madaniyati va sahnaviy harakatning tarixiy hamda estetik xususiyatlari, musiqali teatr aktyorlarini tayyorlash metodikasi, kasbiy kompetensiyalar va ijro mahoratini shakllantirish masalalari, musiqali teatr ijrochilari faoliyatining psixologik jihatlari, sahnaviy amaliyot, musiqiy spektakllarning madaniy transformatsiyasi hamda zamonaviy teatr jarayonlari, milliy an’analarning sahna san’atidagi ifodasi, rejissyorlik yechimlari hamda sahnalashtirish tamoyillari tadqiq etilgan[1].

MDH davlatlari teatrshunoslaridan I.Gorina, A.Didkopskaya, D.Kumukova, N.Lvov, D.Mosiyenko, R.Romanov, V.Strijevskiy, R.Sultanova, A.Chepinoga, Ye.Shadrina kabilar tadqiqotlarida musiqali teatrning nazariy va amaliy masalalari, teatrning musiqiy-sintetik konsepsiyasi, teatr fenomeni, musiqali teatr rejissurasi va aktyor mahoratida ta’sirchan ohang, musiqa va teatr san’atining rivojlanish tendensiyalari o‘rganilgan[2].

---

[1] Çetin Y. İstanbul Büyükşehir Belediyesi şehir tiyatrolarının milenyum sonrası yaptığı yerli oyunlarda geleneksel Türk tiyatrosu unsurları kullanımı: yüksek lisans tezi. – İstanbul: İstanbul Aydın Üniversitesi, 2018. – 174 s.; Diamond J.E. Turning (in)to the Triple Threat: An Auto/Ethnographic Journey through Pedagogy, Discourse, Documentation and Embodied Experience in ArtsEd's Musical Theatre Training Process: PhD dissertation. – Bristol: University of Bristol, 2020. – 362 p.; Gürtunca M. İ. Türkiye'de Kabare Tiyatrosunun başlangıcı, gelişimi ve bugünü: yüksek lisans tezi. – İstanbul: Haliç Üniversitesi, 2018. – 95 s.; Kafetzi E. Interdisciplinarité en représentation théâtrale. Éléments du Musical dans le spectacle interdisciplinaire contemporain: thèse de doctorat. – Paris: Université Sorbonne Nouvelle – Paris 3, 2017. – 418 p.; Ван Лу. Национально-культурные традиции в вокально-сценическом искусстве: на примере пекинской музыкальной драмы и русского оперного театра: Автореф. дис. ... кан. иск. – СПб: СПбГК, 2008. – 23 с.; Risley E. Eight Shows a Week: Investigating the Psychological Cost of a Musical Theatre Performance Career: PhD dissertation. – Sheffield: University of Sheffield, 2025. – 286 p.; Rumsey P. Embodied Nostalgia: Early Twentieth Century Social Dance and U.S. Musical Theatre: PhD dissertation. – New York: CUNY Graduate Center, 2019. – 356 p.; Saroh K. Le théâtre musical au XXe siècle, une expérience politique: thèse de doctorat. – Toulouse: Université Toulouse II – Jean Jaurès, 2018. – 486 p.; Ли Цзяхуэй. Музыкальная драма куньцюй в контексте национальных традиций: Автореф. дис. ... кан. иск. – СПб: РГПУ, 2023. – 24 с.; Whittaker D. E. III. Subversive Aspects of American Musical Theatre: PhD dissertation. – Baton Rouge: LSU, 2002. – 289 p.; Яо Д. Китайская драма юйцзюй как музыкальный феномен: звуковое пространство и практика исполнения: Автореф. дис. ... кан. иск. – Ростов-на-Дону: РГК, 2024. – 33 с.

[2] Горина И.В. Становление и развитие музыкально-драматического искусства Киргизии в первой половине XX в.: Автореф. дис. ... кан. ист. наук. – Бишкек: КГУИК, 2011. – 27 с.; Дидковская Н.А. Русский провинциальный театр рубежа XX - XXI веков: Ярославская социокультурная модель: Автореф. дис. … кан. культурол. наук. – Ярославь: ЯГУ, 2000. – 28 с.; Кумукова Д.Д. Музыкально-синтетическая концепция театра конца XIX – начала XX веков и театр М.И.Цветаевой: Автореф. Дис. … кан. иск. – СПб: ГНИУК, 2001. – 27 с.; Львов Н.И. Киргизский театр: очерк истории. – Москва: Искусство, 1953. – 227 с.; Мосиенко Д.М. Казахский музыкальный театр: история становления: Автореф. дис. ... кан. иск. – Москва: Российская академия музыки имени Гнесиных, 2016. – 25 с.; Романов Р.Р. Феномен провинциального театра (экспериментальные площадки Хабаровского края): Дис. … кан. культурол. наук. – Хабаровск: ХГУ, 2006. – 176 с.; Стрижевский В.А. Формирование русского театра в Башкортостане, конец XVIII – начало XX вв: Автореф. дис. … кан. иск. – Москва: ГНИУК 2000. – 28 с.; Султанова Р.Р. Сценография татарского театра: основные этапы и закономерности развития (XX – нач. XXI в.): Автореф. дис. ... док. иск. – Москва: МГХПА, 2018. – 61 с.; Чепинога А.В. Действенная интонация в режиссуре и мастерстве актера музыкального театра: Дис. ... кан. иск. – Москва: МГУ, 2011. – 145

O‘zbek teatri va musiqali drama san’ati bo‘yicha ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar teatr san’atining milliy ildizlari, rivojlanish bosqichlari, xususan, musiqali dramaning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur yoritib beradi[1]. Qoraqalpoq teatr san’atining vujudga kelishi, shakllanish va rivojlanish jarayonlari Q.Ayimbetov, T.Bayandiyev va T.Allanazarov kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida davr nuqtayi nazaridan tahlil qilingan[2]. Shu bilan birga, A.Pirnazarov, P.Paluaniyazov, Sh.Usnatdinov kabi olimlar ham bu mavzu bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan. Asosan, qoraqalpoq teatrining umumiy manzarasi, sahna madaniyati, dramaturgiya, rejissyorlik va aktyorlik san’ati bo‘yicha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan[3]. P.Mamutov tomonidan qoraqalpoq teatri san’atining shakllanish, rivojlanish va taraqqiyot yo‘llari, tarixiy an’analari va zamonaviy tendensiyalari umumiy tahlil etilgan[4]. Shuningdek, dissertatsiyani yozish jarayonida teatrshunos olimlarning mavzuga oid ilmiy-tadqiqot ishlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, monografiya va sohaga oid maqolalaridan foydalanildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Yangi O‘zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish strategiyasi: an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy talablar uyg‘unligida madaniyat va san’at sohasi mutaxassislarini tayyorlashning nazariy-konseptual asoslari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qoraqalpoq musiqali drama san’atining tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonlarini, milliy an’ana va zamonaviy tendensiyalarini

---

с.; Шадрина Е.А. Тенденции в развитии музыкально-театрального искусства на Южном Урале: Автореф. дис. ... кан. иск. – Магнитогорск: МГИИ, 2009. – 21 с.

[1] Qodirov M. O‘zbek xalq og‘zaki dramasi. – Toshkent: O‘zR FA, 1963. – 170 b; Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilar san’ati. – Toshkent: Fan, 1971. – 227 b.; Qodirov M. O‘zbek teatri an’analari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1976. – 420 b.; Qodirov M. O‘zbek xalq tomosha san’ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981. – 223 b.; Qodirov M. Sehr va mehr. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. – 150 b.; Tursunov T. XX asr o‘zbek teatr tarixi (1900-2007). – Toshkent: Art Press, 2010. – 568 b.; Bayandiyev T. San’at masalalari – teatrshunos nigohida. – Toshkent: O‘zDSI bosmaxonasi. 2009. – 204 b.; Bayandiyev T., Ikromov H., Ahmadjonova M. O‘zbek teatrida milliy g‘oya talqini. – Toshkent: O‘zDSI, 2009. – 220 b.; Хамидова М.А. Узбекская музыкальная драма: проблемы жанра. – Toshkent: Изд-во литературы и искусства, 1982. – 87 с.; To‘laxo‘jayeva M. O‘zbek dramatik teatri rejissurasi (rivojlanish tamoyillari va zamonaviy muammolar). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995. – 85 b.; Туляходжаева М. Узбекская драматургия на сцене театра (60-80-е годы). – Ташкент: Фан, 1990. – 133 с.

[2] Aymbetov Q. Qaraqalpaq sovet dramaturgiyası: Fil. fan. nom. dis. – Toshkent: O‘zR FA, 1956. – 144 b.; Ayımbetov Q. Qaraqalpaq sovet dramaturgiyasınıń tariyxınan ocherkler. – Nókis: Qaraqalpaq mámleketlik baspası, 1963. – 80 b.; Баяндиев Т. Каракалпакского театра. – Tashkent: Fan, 1971. – 201 b.; Баяндиев Т. Современные проблемы театра (на примере Каракалпакского театра). – Ташкент: ГИИУз, 2008. -144 с.; Bayandiyev T. Qoraqalpoq teatri tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi, 2011. – 207 b.; Bayandiyev T., Sayfullayev B. Qoraqalpoq sahnasining Berdaq shoiri. – Toshkent: Dilshod print, 2014. – 114 b.; Allanazarov T. Qoraqalpoq teatrida milliy rejissuraning shakllanishi. – Nókis: Bilim, 1996. – 64 b.; Алланазаров Т. Некоторые вопросы истории каракалпакской советской драматургии. – Нукус: Каракалпакистан, 1987. – 86 с.; Алланазаров Т. Истоки и формирование каракалпакской советской драматурги и театра: Автореф. дис. ... кан. иск. – Ташкент, 1964. – 20 с.; Алланазаров Т. Каракалпакская советская драматургия (К проблеме становления нового жанра в национальной художественной культуре): Автореф. дис. ... док. иск. – Ташкент, 1991. – 42 с.

[3] Пирназаров А. Режиссура каракалпакского гостеатра имени К.С.Станиславского (Истоки и формирование). – Нукус: Каракалпакстан, 1983. – 108 с.; Палуаниязов П.К. Истрория музыкальной культуры Каракалпакстана (1925-1950 г). Автореф. дис. .. кан. ист. – Нукус, 2003. – 23 с.; Usnatdinov Sh. Kórgenlerim hám kewildegilerim. – Nókis: Bilim, 2009. – 132 b.

[4] Mamutov P.A. Zamonaviy qoraqalpoq teatri: an’ana va yangi tendensiyalar: San. fan. fal. dok. dis. – Toshkent: O‘zDSMI, 2024. – 45 b.

o‘rganish, tahlil qilish, ularning o‘zaro aloqadorligini asoslash hamda istiqbollarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qoraqalpoq musiqali drama san’atining tarixiy ildizlari, an’ana va zamonaviy tendensiyalarini aniqlash;

musiqali drama san’atining qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodi, adabiyoti, xususan dramaturgiyasi bilan bog‘liq holda mavzu va janr nuqtayi nazaridan rivojlanib, takomillashib borganligini asoslash;

qoraqalpoq musiqali dramasining professionlashuv jarayonida bastakorlik, kompozitorlik, musiqa, vokal, rejissura va ijrochilik san’atining sezilarli darajada yuksalganligini asoslash;

tadqiqot natijalari asosida qoraqalpoq musiqali drama san’atini yanada rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpoq musiqali drama san’ati shakllanish va rivojlanish jarayonlarining tashkiliy-ijodiy faoliyati belgilandi.

Tadqiqotning predmetini Qoraqalpoq musiqali teatrining shakllanish va rivojlanish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etgan g‘oyaviy-badiiy yuksak spektakllar tahlili tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda zamonaviy san’atshunoslik ilmining tasniflash, suhbat, qiyosiy tahlil, kuzatuv va kompleks yondashuv kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qoraqalpoq musiqali dramasi XX asr boshlarida etnik madaniyat, folklor, an’anaviy musiqa va qo‘shiqchilik san’ati ta’sirida original san’at turi sifatida yuzaga kelganligi aniqlangan;

XX asr o‘rtalariga kelib musiqali drama san’atining qoraqalpoq adabiyoti, xususan dramaturgiyasining badiiy-sahnaviy an’analarni saqlagan holda mavzu va janr nuqtayi nazaridan rivojlanib, sahnalashtirish jarayonlarida ko‘proq xatti-harakat, plastik va musiqiy yechimga urg‘u berish kabi yangi zamonaviy tendensiyalar bilan boyib, ommalashib borganligi isbotlangan;

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bastakorlik, kompozitorlik, rejissura va ijrochilik san’atining rivojlanib borishi bilan qoraqalpoq musiqali dramasida yorqin zamonaviy milliy kolorit aks etgan dramaturgik manba, original sahnaviy talqin, musiqa, vokal hamda raqs ijrochilik mahoratining takomillashuvi va professionallashuvi yuzaga kelganligi dalillangan;

XXI asr qoraqalpoq milliy musiqali drama san’atining jahon musiqiy teatr san’ati bilan integratsiyalashuvi, zamonaviy audio, vizual, proyeksion, lazer va yoritish tizimlari kabi innovatsion sahna texnologiyalarining joriy qilinishi, shuningdek, interaktiv, mexanik va texnologik transformatsion jarayonlarning ta’siri natijasida yangi shakl va mazmundagi qoraqalpoq opera va balet san’atining maydonga chiqqanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

respublika musiqiy teatrlarida faoliyat yuritayotgan dramaturg, aktyor-xonanda va rejissyorlarning ijodiy yo‘nalishlarini belgilashda, tomosha san’atining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlari haqida tasavvurga ega bo‘lishida konseptual ilmiy-nazariy manba yaratilgan;

qoraqalpoq musiqali drama san’ati tarixi va shakllanish bosqichlarini o‘rganish natijasida teatrlar repertuari, rejissyorlar va aktyorlar tarkibi aniqlangan;

qoraqalpoq musiqali drama san’atining taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy masalalar bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

oliy va o‘rta-maxsus san’at ta’lim muassasalari uchun qoraqalpoq musiqali drama san’atining tarixi, o‘ziga xos xususiyatlari va ijrochilik an’analarini o‘rganishda yordam beruvchi “Qoraqalpoq teatr tarixi”, “Dramaturgiya asoslari”, “Rejissura tarixi” faniga doir maxsus o‘quv qo‘llanmalar, monografiya va uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan xulosalarning jahon san’atshunosligi, teatrshunosligi va madaniyatshunosligining sinalgan metodlari va nazariy yondashuvlari qo‘llanilganligi, ijodiy jarayonlarni kuzatish natijalariga asoslanganligi, tarixiy va zamonaviy mavzularda sahnalashtirilgan spektakllarning tahliliga tayanilganligi, shuningdek, arxiv hujjatlaridan foydalanilganligi va ular asosida ishlab chiqilgan takliflar amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyadagi zamonaviy qoraqalpoq teatri: an’ana va yangi tendensiyalarning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqot ishi teatrshunoslik ilmidagi mavjud ma’lumotlarni to‘ldirishi va qoraqalpoq teatr tarixi fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar yaratishda asosiy manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mustaqillik davri qoraqalpoq teatri taraqqiyoti va uning badiiy-estetik xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil etish, teatr amaliyotida zamonaviy rejissyorlik hamda aktyorlik yechimlarini takomillashtirish, spektakllarni sahnalashtirish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash, ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar qoraqalpoq teatrlarining ijodiy faoliyatini takomillashtirish, repertuar siyosatini boyitish, sahna asarlarining badiiy saviyasini oshirish hamda teatr san’atining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini amaliyotga tatbiq etishi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpoq musiqali drama san’atining tarixiy ildizlari, an’ana va zamonaviy tendensiyalariga oid tadqiqotdan olingan ilmiy natijalar asosida:

qoraqalpoq musiqali dramasi XX asr boshlarida etnik madaniyat, folklor, an’anaviy musiqa va qo‘shiqchilik san’ati ta’sirida original san’at turi sifatida yuzaga kelganligi aniqlanganligini asoslovchi ilmiy xulosalardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligida o‘tkazilgan ijodiy seminarlarda yosh ijodkorlarning badiiy mahoratini oshirishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 27-oktabrdagi 7-03/2278-son ma’lumotnomasi). Natijada, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri, Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri va Qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatrida olib borilayotgan ijodiy jarayonlar, repertuar yaratish, spektakllardagi musiqiy-sahnaviy usullar, aktyorlik, rejissura, ssenografiya san’ati rivojiga xizmat qilgan;

XX asr o‘rtalariga kelib musiqali drama san’atining qoraqalpoq adabiyoti, xususan dramaturgiyasining badiiy-sahnaviy an’analarni saqlagan holda mavzu va janr nuqtayi nazaridan rivojlanib, sahnalashtirish jarayonlarida ko‘proq xatti-harakat,

plastik va musiqiy yechimga urg‘u berish kabi yangi zamonaviy tendensiyalar bilan boyib, ommalashib borganligi isbotlangan yondashuv asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filialining “San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Qoraqalpoq teatr tarixi”, “Aktyorlik mahorati” fanlaridan o‘quv adabiyotlar yaratishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 27-oktabrdagi AA-03/3186-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning qoraqalpoq teatr tarixi, rejissyorlik san’ati, aktyorlik mahorati sohalarida asosli manbalarga ega bo‘lishlariga xizmat qilgan;

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bastakorlik, kompozitorlik, rejissura va ijrochilik san’atining rivojlanib borishi bilan qoraqalpoq musiqali dramasida yorqin zamonaviy milliy kolorit aks etgan dramaturgik manba, original sahnaviy talqin, musiqa, vokal hamda raqs ijrochilik mahoratining takomillashuvi va professionlashuvi yuzaga kelganligi dalillangan ilmiy-nazariy xulosalardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi teleradiokompaniyasining “Assalawma áleykum, Qaraqalpaqstan”, “Xabar bағdarlaması”, “Saz-sáwbet keshesi” kabi ko‘rsatuvlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2025-yil 27-oktabrdagi 05-22/585-son ma’lumotnomasi). Natijada, teleradiokompaniya ko‘rsatuv-eshittirishlarida, xususan, teatr, musiqa va madaniy merosni targ‘ib qiluvchi teledasturlarning g‘oyaviy-tematik salmog‘ining kengayishiga xizmat qilgan;

XXI asr qoraqalpoq milliy musiqali drama san’atining jahon musiqiy teatr san’ati bilan integratsiyalashuvi, zamonaviy audio, vizual, proyeksion, lazer va yoritish tizimlari kabi innovatsion sahna texnologiyalarining joriy qilinishi, shuningdek, interaktiv, mexanik va texnologik transformatsion jarayonlarning ta’siri natijasida yangi shakl va mazmundagi qoraqalpoq opera va balet san’atining maydonga chiqqanligi dalillangan ilmiy xulosa va tavsiyalardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi davlat teatrlari ijodiy faoliyatida foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 27-oktabrdagi 7-03/2278-son ma’lumotnomasi). Natijada, teatrlar repertuarlari g‘oyaviy, dadiiy-estetik jihatdan takamillashib, zamonaviy tendensiyalar tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhakamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, shundan 10 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, Respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot predmeti va obyekti aniqlangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi aks ettirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bayon etilgan, nashr qilingan maqolalar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Qoraqalpoq musiqali drama san’atining shakllanish jarayonlari”** deb nomlanib, u ikki bo‘limdan iborat. Qoraqalpoq musiqali dramasining yuzaga kelishi, shakllanish va rivojlanish jarayonlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Mazkur san’at turining shakllanishida qoraqalpoq xalqining turmush tarzi, milliy urf-odatlari, kuy-qo‘shiqlari va ayniqsa, xalq og‘zaki ijodining ta’siri katta bo‘ldi. Qoraqalpoq musiqali drama san’atining o‘ziga xos xususiyatlarini uzoq yillik tarixiy taraqqiyot jarayonlari bilan bog‘liq ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish masalalari hozirgi teatrshunoslik ilmining muhim vazifalardan biridir.

“Tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bo‘limida tomosha san’atining alohida turi bo‘lmish, qoraqalpoq musiqali dramasi o‘lkada qadimdan mavjud bo‘lgan an’anaviy xalq tomosha san’ati baxshichilik, jirovlar, sozandalik va raqs san’ati bilan bog‘liq holda vujudga kelishi, rivojlanish jarayonlari, taraqqiyot bosqichlari, orttirgan tajribalari haqida so‘z boradi.

Qoraqalpoq musiqali teatriga oid masalalarni o‘rganish bugungi teatrshunoslik ilmida kam murojaat qilingan mavzular qatorida tilga olinadi. Ammo umumiy ma’noda mavzuga doir ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Zamonaviy qoraqalpoq teatr san’ati deyarli barcha teatr turlari va janrlarini o‘zida mujassam qilgan. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi namunalari ilk musiqiy sahna dramaturgiyasining yuzaga kelishida asosiy manbalardan bo‘lgan.

Jahon teatrshunoslik ilmida teatr san’atining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Rus teatrshunosligida teatrning nazariy va amaliy masalalari kompleks o‘rganilgan. D.Kumukova, V.Strijevskiy, N.Didkopskaya, R.Romanov, E.Shadrin, A.V.Chepinoga kabilar rus musiqali teatr dramaturgiyasi, rejissurasi, aktyor mahorati, tasviriy ifoda vositalari xususida tadqiqot olib borishgan. Shuningdek xitoy, qirg‘iz, qozoq, tatar xalqlari teatri, xususan musiqali dramaning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari, tovush maydoni va ijrochilik amaliyoti, vokal-sahna san’atida milliy-madaniy an’analari hamda tomosha san’atining nazariy-amaliy xususiyatlari, qonuniyatlari atroflicha tadqiq qilingan.

Professional o‘zbek teatri asosini tashkil etgan dramaturgiya masalalari I.Sulton, B.Imomov, H.Abdusamatov, M.To‘laxo‘jayeva, Sh.Rizayev, O.Tojiboyeva, T.Yuldashev, A.Nomozova, Q.Jo‘rayev, F.Abduvohidov, B.Yakubov kabi mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan. E.Ismoilov, M.To‘laxo‘jayeva, M.Umarov, A.Ismoilov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida rejissura masalalariga e’tibor qaratilgan. Tarixiy mavzudagi asarlarning sahna talqinlari xususida N.Karimov, T.Islomov, D.Rahmatullayeva, S.Mirvaliyev, M.Aliyev kabi olimlarning tadqiqotlaridan ma’lumot olish mumkin. O‘zbek teatri san’atida janr muammolari S.Qodirova, M.Jo‘rayev, R.Mustafaqulovlar ilmiy izlanishlarida, aktyorlik san’ati

masalalari Y.Feldman, T.Silmilshteyn, F.Jo‘rayev, I.Muxtarov, O.Rizayev, S.Abdullayevalar tadqiqotlarida ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, xorijiy dramaturgiyani sahnalashtirish tajribalari borasida G.Rahmonova, E.Gershberg, S.Tursunboyevlarning, ssenografiya sohasida G.Sosnovskaya, D.Qodirovalarning tadqiqotlariga murojaat qilindi.

Qoraqalpoq musiqali drama san’atining vujudga kelishi, shakllanish va rivojlanish jarayonlari Q.Ayimbetov, T.Bayandiyev, T.Allanazarov, P.Mamutov kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida davr nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Shu bilan birga, A.Pirnazarov, P.Paluaniyazov, Sh.Usnatdinov kabi olimlar ham bu mavzu bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan. Asosan, Qoraqalpoq teatrining umumiy manzarasi, sahna madaniyati, dramaturgiya, rejissyorlik va aktyorlik san’ati bo‘yicha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. P.Mamutovning “Zamonaviy qoraqalpoq teatri: an’ana va yangi tendensiyalar” nomli dissertatsiyasida qoraqalpoq teatr san’atining shakllanish, rivojlanish va taraqqiyot yo‘llari, tarixiy an’analari va zamonaviy tendensiyalari umumiy tahlil etilgan.

Tadqiqotlarni o‘rganish jarayonida qoraqalpoq musiqali dramasining uzoq yillik tarixiy rivojlanish jarayonlarini ilmiy o‘rganishga hamisha ehtiyoj bo‘lganligi ko‘rinadi. Mazkur tadqiqotlar Qoraqalpoq musiqali drama san’atining tarixiy ildizlari, an’ana va zamonaviy tendensiyalarini asosli o‘rganishda ilmiy-nazariy asos sifatida xizmat qildi.

Birinchi bobning **“Musiqali drama san’atining tarixiy ildizlari”** nomli ikkinchi bo‘limi Qoraqalpoq musiqali drama san’atining vujudga kelishi va shakllanishining dastlabki bosqichlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Qoraqalpoq musiqali dramasi xalqning turmush tarzi, asrlar davomida yuzaga kelgan urf-odatlar, madaniy-ma’naviy qadriyatlar negizida shakllanib, o‘zida dramaturgiya, teatr va musiqa san’atini uyg‘unlashtirgan holda alohida san’at turi sifatida shakllandi. Uning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. “Xalqimiz jahon teatr madaniyatining deyarli barcha turlarini egallagan”, deb yozadi teatrshunos olim H.Ikromov: “lekin xalqimiz o‘z xarakter xususiyati va milliy an’analariga tayangan holda professional teatrning yangi o‘ziga xos turi – musiqali dramani yaratgan. Musiqali dramaning tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi”[1].

Qoraqalpoq milliy musiqali drama san’atining ibtidoiy negizini jirovlar, baxshilar, qissaxonlar, sozanda va qo‘shiqchilar san’ati tashkil qiladi. Qoraqalpoq xalq jirovlari uzoq asrlar davomida og‘zaki va yozma adabiyot namunalarini kuylash orqali alohida tur sifatida shakllandi. Qoraqalpoq xalq jirovchilik va baxshichilik san’ati o‘zining ko‘p asrlik taraqqiyot yo‘li bilan nafaqat bir millatning, balki butun Markaziy Osiyo turkiy xalqlari madaniy merosining ajralmas tarkibiy qismi sifatida rivojlanib bordi. Tadqiqotchilar o‘z izlanishlarida jirovchilik san’atining kelib chiqishi massagetlar davriga va Oltin O‘rda (No‘g‘ayli) sivilizatsiyasiga borib taqalishini isbotlab berdi. Jirovlar xalq dardi, turmush tarzi, ijtimoiy ahvolini o‘z ijodlarida badiiy-obrazli tasvirlaganlar. Tadqiqotchi olimlardan Q.Ayimbetov, K.Mambetov, S.Bahodirova, A.Allamuratov, T.Adambayevalar qoraqalpoq milliy musiqa san’atining ildizlari G‘oztuvgan jirov, Soppasli Sipira jirov, Qo‘rqit ota davrlariga borib taqalishini isbotlab berganlar.

[1] Икромов Ҳ. Давр ва театр. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2009. – Б. 64.

Qoraqalpoq teatr san'ati, xususan musiqali drama va operalarining yaratilishida ayniqsa, xalq dostonlarining ahamiyati katta bo'ldi. Dostonlar sahna asarlariga syujet beradi, ularning badiiy va g'oyaviy mazmunini boyitadi. Shu bois, xalq dostonlari orqali yaratilgan spektakllar qoraqalpoq teatr san'atida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. "Qoraqalpoq xalqining og'zaki adabiyotining eng boy, eng hajmli turi dostonlar, yoki botirlar qo'shig'i deb yuritiladi. Botirlar qo'shig'i va sevgi qo'shiqlari bo'linib, umumiy dostonlar deb atalgan. Qoraqalpoq dostonlari ichida eng mashhurlari "Qirq qiz", "Alpomish", "Qo'blon", "Maspatsha" dostonlari hisoblanadi.

Musiqiy dramaning shakllanishida masxarabozlik va qo'g'irchoq o'yinlari kabi an'anaviy xalq tomoshalarining ham alohida o'rni bor. Ular o'ziga xos satira va yumor orqali jamiyatdagi ijtimoiy illatlar, adolatsizliklar va amaldorlarning kirdikorlarini kulgu ostiga olganlar, ayniqsa, xasis boylar va chalasavod mullalarning qiyofasini kulguli, ammo keskin tanqidiy tarzda tasvirlanganlar. Bu an'anaviy o'yinlar musiqiy dramaga nafaqat mavzular, balki ifoda vositalari, ya'ni so'z, musiqa, raqs va sahna harakatlarining uyg'unlashuvi nuqtayi nazaridan ham boy mazmun bag'ishlagan.

Qoraqalpoq musiqali dramasining shakllanishida xalq orasida keng tarqalgan aytishuv musobaqalari ham alohida ahamiyat kasb etgan. Qiz-yigitlar o'rtasida so'z bilan aytishuvga kirishish, o'zining poetik mahoratini namoyish etish aytishuv san'atining o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi. Bu jarayonda har bir ishtirokchi o'zining zukkoligi, topqirligi va badiha qobiliyatini ishga soladi. Bu an'ana xalqning madaniyatida chuqur ildiz otgan bo'lib, bir kechalik unutilmas tomoshaga aylanadi. Aytishuv ikki tomon o'rtasida o'tkir so'zlar bilan kechadigan bellashuv bo'lib, bu bellashuvda ishtirokchilarning topqirligi, hazil tuyg'usi va vaziyatni tezda tushunib, javob qaytarish qobiliyati namoyon bo'lgan.

Xalq ichida tashkil etilgan to'garaklar aktyor, rejissyor va sozandalar mahoratini takomillashtirishga xizmat qildi. To'garak tarkibidan mahoratli sahna ijodkorlari yetishib chiqdi. Havaskorlar to'garakda xalq musiqasi, an'anaviy raqslarga asoslangan, milliy qahramonlik mavzusidagi dostonlarni sahnalashtirishga e'tibor qaratishdi. To'garak repertuaridan o'rin egallagan milliy ruhdagi musiqali dramalarning paydo bo'lishi, xalqning o'ziga xos madaniyatini aks ettirishiga yordam berdi. Havaskor to'garaklar eksperimentlar o'tkazish, yangi mavzu va g'oyalarning sinov maydoniga aylandi. Xalq tomoshalarida milliy musiqaga asoslangan dramatik asarlar yaratish g'oyasi paydo bo'lgan. Havaskor to'garaklar faoliyati shahar va qishloqlarda keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu jarayon musiqali dramaga bo'lgan qiziqishni yanada oshirdi.

"1923-1925 yillar Chimboy, Xo'jayli, Qo'ng'irotdagi boshlang'ich maktab va bolalar uyi qoshidagi o'quvchilardan drama to'garak ishlari tashkil etildi. O'zbek dramaturgi Hamza Hakimzoda Niyoziy Xo'jaylidagi xalq ta'limida ishlagan davrida drama to'garaklariga o'zining yordamini ko'rsatdi. Hamza Qo'ng'irot tumanida ham to'g'arak ishlarini tashkil etib, yangi teatrning o'ziga xos xususiyatlari bilan xalqni tanishtirdi" [1]. Havaskor to'garak a'zolari musiqali dramaning Qoraqalpog'iston bo'ylab keng yoyilishi hamda jamiyat ongida teatr haqidagi tasavvurning kengayishiga xizmat qildi. Ular jamiyat ichidan yangi iste'dodlarni kashf qilish

[1] Ayımbetov Q. Qaraqalpaq sovet dramaturgiyasınıń tariyxınan ocherkler. – Nókis: Qaraqalpaq mámleketlik baspası, 1963. – B. 8.

orqali teatr san'atini xalqqa yaqinlashtirdi. Havaskor ijodkorlar mahorati tufayli musiqali dramaning ilk namunalari shakllandi.

Qoraqalpog'istondagi dastlabki teatr truppasi 1926-yili "Tong nuri" nomi bilan tashkil topdi. Truppaning dastlabki tashkilotchisi Zarif Qosimov bo'ldi. Qoraqalpoq teatri rivojlanish davrida milliy asarlar bilan chegaralanib qolmadi, ayniqsa qardosh xalqlar dramaturgiyasiga jiddiy e'tibor qaratdi. Teatr jamoasi 1935-yili G'.Zafariyning "Halima" asarini sahnalashtirib, yirik muvaffaqiyatga erishdi.

Qoraqalpoq teatri repertuari 1937-1939-yillar oralig'ida mahalliy mualliflar va qardosh xalqlar asarlari bilan boyidi. Xurshidning "Layli va Majnun" musiqali dramasi, J.Aymurzayevning "O'z qo'li bilan o'z boshiga", M.Dariboyevning "Ko'klan botir" qahramonlik musiqali dramasi, U.Gajibekovning "Arshin mal alan" musiqali komediyalari boshqa teatrlardagiga nisbattan aktyorlik mahorati, rejissyorlik talqini, sahna dekoratsiyasi, badiiy yaxlitligi jihatidan farqliligi Qoraqalpoq musiqali dramalarining muvaffaqiyatini belgilab berdi. 1939-1940-yillar oralig'ida sahnalashtirilgan "Gulsara" asari aktyorlik va rejissyorlik san'atida erishilgan yutuqlar namunasi bo'ldi. 1940-1941-yillar mavsumida sahnalashtirilgan Hamzaning "Maysaraning ishi" musiqali dramasi Qoraqalpoq teatrining badiiy qiyofasi va o'ziga xosligini yanada boyitdi. "Maysaraning ishi" asarini sahnalashtirishda rejissyor T.Allanazarov pyesaning satirik va lirik kabi ikki yo'nalishini aniq ko'rsatib berishga intiladi.

1950-1990-yillarda qoraqalpoq musiqali dramasi imkoniyatlari yanada kengaydi, mavzu va janr jihatidan boyidi. "Suymaganga suykalma", "Aygul-Abat" "Berdaq", "G'arib-oshiq", "Ravshan" spektakllari kompozitorlarning original kuylar yaratish tajribasi orqali maydonga keldi. Ushbu spektakllarda ko'p ovozli xorlar, ansambllar va uvertyura, raqslar paydo bo'lib, respublikamizda ko'p ovozli musiqiy uslubni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Kompozitorlar tomonidan yakka ovozli xalq kuylarini qayta ishlab, orkestrga moslash orqali badiiy jihatdan kuchli murakkab asarlar yaratildi.

Mustaqillik yillarida yaratilgan musiqali dramalar murakkab mavzulardan iborat bo'ldi. "Ayjamal" baleti (N.Muhammeddinov), "Edige" musiqali dramasi (K.Raxmanov), "G'arib oshiq" musiqali dramasi (A.Begimov, T.Allanazarov), "Yor diydori" musiqali dramasi shular jumlasidandir. Ushbu spektakllar o'zining mavzu va janr xilma-xiligi bilan ajralib turadi. Keyingi yillarda qayta sahnalashtirilgan "Suymaganga suykalma", "Alpomish", "Berdaq", "Ajiniyoz", "To'maris", "Muhabbat shamoli" va "Jamila" kabi musiqali spektakllarda teatr jamoasining ijro imkoniyatlari yanada to'laqonli namoyon bo'ldi.

Ikkinchi bob **"Qoraqalpoq musiqali dramalarida mavzu va janr xilma-xilligi"** deb nomlanib, u ham ikki bo'limdan iborat. Ushbu bobda Qoraqalpoq musiqali drama san'atida yaratilgan tarixiy, afsonaviy hamda zamanoviy mavzudagi spektakllarning o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Bobning birinchi bo'limi **"Tarixiy va afsonaviy mavzudagi spektakllarda an'anaviy talqin va ijro"** deb nomlangan. Tarixiy va afsonaviy mavzudagi asarlarning o'ziga xosligi dramaturgiyada tarixiy faktlar va badiiy to'qimalarning mahorat bilan uyg'unlashuvida ko'rinadi. Bir tomondan, muallif o'tmish voqealarini tarixiy faktlar asosida yoritishga intilsa, ikkinchi tomondan, dramatik keskinlik, qahramonlar ruhiyatini ochib berish,

emotsional ta’sirchanlikni oshirish maqsadida badiiy tafakkur va ijodiy erkinlikdan foydalanadi.

Insoniyat tarixi, o‘tmishda o‘zlarining namunaviy hayot yo‘li, ezgu amallari, serqirra ijodi va bunyodkorligi bilan nom qozongan buyuk allomalar siymolarini badiiy talqin qilish adabiyot va san’atning hamisha bosh mavzularidan bo‘lib kelgan. Shu ma’noda, qoraqalpoq musiqali dramasi ham tarixiy mavzularga murojaat qilib kelishi tabiiy holdir. Ularda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, xalq qahramonligi motivlari yetakchilik qiladi.

Qoraqalpoq teatridagi tarixiy va afsonaviy mavzudagi musiqiy dramalarning o‘ziga xos jihatlar turli yillarda sahnalashtirilgan qoraqalpoq teatrida sahnalashtirilgan “Berdaq”, “Ziyuar”, “Edige” hamda “Alpomish”, “G‘arib oshiq” kabi musiqali dramalar sahna talqinlarida ko‘zga tashlanadi.

Birinchi Qoraqalpoq dramasi – tarixiy-biografik asar hisoblangan “Berdaq” 1950-yili yaratilgan. Yozuvchisi Jolmirza Aymurzayev pyesaning sahnaviy tarixi 1950-yildan boshlanib, yana uch marotaba 1958, 1978 va 1984-yillari qayta-qayta yangi ijrochilar bilan sahnalashtirildi.

Musiqiy asarning kompozitsion tuzilishi, an’anaviy dramaturgiya qonuniyatlariga asosan qurilgan, voqealar uvertyura, parda, ko‘rinish degan bo‘limlarga ajratilgan. Unda aniq “prolog” bo‘limi ajratilmagan bo‘lsa-da, uvertyura musiqiy qismi asar uchun muhim kirish vazifasini o‘taydi. Uvertyura odatda asosiy mavzularni tinglovchiga tanishtiradi. Berdaq g‘oyalari, xalqqa bo‘lgan muhabbati, adolatga intilishi musiqiy ohanglarda ifodalanadi. Dramatik, epik yoki lirik ohanglar asarning ruhiyatini belgilab beradi. Uvertyura orqali tomoshabin xayolan asarning muhitiga sho‘ng‘iydi va kelgusi voqealarga tayyorlanadi.

“Berdaq” musiqali dramasida qoraqalpoq xalqining o‘tmishi, ma’naviy qiyofasi, kurashi va orzu-umidlari mujassam bo‘lgan monumental spektakl sifatida namoyon bo‘ladi. “Berdaq” spektaklining muvaffaqiyati hamda o‘ziga xos ijodiy tajriba M.Nizanovning “Ziyuar” asarida yanada takomillashtirildi. “Ziyuar” musiqali dramasi ma’rifat va jaholat, sevgi va nafrat, adolat va zulm o‘rtasidagi azaliy kurashni tasvirlaydi. Asar syujeti iste’dodli shoir va ma’rifatparvar Ajiniyozning taqdiri orqali ochib beriladi. Musiqali dramada adolatli jamiyat qurish, o‘z vatanini sevish, ilm-fan va san’atning qadriga yetish kabi dolzarb g‘oyalar ilgari surildi.

Muratboy Nizanovning mazkur asarda an’ana, urf-odat, milliy qadriyatlarning zamonaviy jarayonlar bilan uyg‘unlashuvi ko‘zga tashlanadi. Kompozitor Qurbanbay Zaretdinov yaratgan musiqa spektakl qahramonlarining ichki kechinmalari hamda dramatik vaziyatlarning shiddati va umumiy ohangini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Marqabay Usenovning rejissyorlik mahorati, kompozitor Qurbanbay Zaretdinovning musiqiy talqini, rassom Z.Sayipov va kostyumlar bo‘yicha rassom Bahadir Serekeyevning izlanishlari spektaklning badiiy yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Musiqali drama voqealarining rivojlanish jarayonlari ma’rifat va ijtimoiy masalalarni bir-biriga bog‘lab, asarning g‘oyaviy teranligini oshiradi. Bu akt ikki xil sahnadan iborat: birinchisi, Ajiniyoz va Gulzoda o‘rtasidagi sevgi izhorlari sahna ortidagi musiqiy fonni taqdim etsa, ikkinchisi, madrasadagi ma’rifatparvarlik muhiti va yangi konflikt – vabo xavfi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Kenesboy Raxmanov va Qurbonboy Zaretdinov tomonidan yaratilgan navbatdagi tarixiy asar “Edige” musiqiy dramasi ham qoraqalpoq xalqining tarixiy xotirasi, qahramonlik ruhi va adolatga intilishini badiiy obrazlarda aks ettiruvchi sahna asarlaridan hisoblanadi. Spektakl voqealari Nog‘ay dashtida boshlanadi, bu yerda bosh qahramon Edige yilqichi bilan suhbatlashadi. Bu jarayonda asarning asosiy konflikti va bosh qahramonning xarakteri namoyon bo‘la boshlaydi.

Spektaklning asosiy voqealari davomida yetimlikda o‘sgan qahramonning adolat, xalq farovonligi yo‘lidagi kurashi hamda xon hokimiyatining zolimligi hamda bu jarayondagi ziddiyatli kurashlar tasvirlanadi. Oilaviy sir, taxt talashish, sadoqat va xiyonat voqealar rivojini belgilab beradi. Spektaklda haqiqiy liderlik va adolat shaxsning nasl-nasabidan ustun turishi tarannum etiladi. To‘xtamishxon o‘z hokimiyatini saqlab qolish uchun makkorlik va xiyonat yo‘lini tanlagan bo‘lsa, Edige o‘zining adolati, donoligi va botirligi bilan xalq ishonchini qozonadi. Voqealar davomida adolatning zafar qozonishi va xiyonatning mag‘lub bo‘lishi dramatik to‘qnashuvlar orqali ko‘rsatiladi.

Musiqa qahramonlarning his-tug‘ulari, ichki kechinmalari, tafakkuri va ruhiyatini ochib berish bilan birga asar syujetini ham boshqarib boradi. Edige va To‘xtamishxon o‘rtasidagi konflikt musiqada aniq aks etadi. Edigening qahramonlik ruhidagi qo‘shiqlari baland pardalarda yangrasa, To‘xtamishxonning ariyalar keskin, ba’zan dissonans (lotincha: dissono - uyg‘unlashmay, moslanmay yangrayman) (musiqada) – tovushlarning bir-biriga nisbatan hamohangsiz yangrashi)lar bilan to‘la namoyon bo‘ladi. Ularning o‘zaro qarama-qarshi dialoglarida musiqiy keskinlik, garmonik ziddiyatlar va asabiy temp o‘sishi namoyon bo‘ladi.

Qahramonlarning monolog va dialoglarida rechitativdan keng foydalaniladi. Bu sahna nutqini musiqiy ifodaviylik bilan boyishiga xizmat qiladi. Spektaklda har bir asosiy obrazning o‘z ariyasi mavjud bo‘lib, ular qahramonlarning chuqur his-tuyg‘ularini, ichki kechinmalarini va g‘oyaviy maqsadini ochilishiga xizmat qiladi. Edigening Amir Temurga murojaat qilish sahnalari va uning ichki monologlari bunga misol bo‘ladi. Spektaklda ommaviy sahnalar, xususan, xalq xorlaridan keng foydalaniladi. Bu xorlar musiqiy-dramatik harakatni kuchaytirish bilan birga, xalqni birdamlikka chorlaydi.

Bastakor Qurbonboy Zaretdinov qoraqalpoq milliy musiqasining o‘ziga xosligi (masalan, dostonlar, qo‘shiqlar ohangi) bilan G‘arb musiqasining kompozitsion texnikasini (garmoniya, polifoniya) mahorat bilan sintez qiladi. Spektakl uchun yaratilgan musiqalar milliy va umumbashariy qadriyatlarni ifodalashga ham xizmat qiladi.

Spektaklda musiqiy element (vokal diapazoni, leytmotivlar, musiqiy nutq) dramatik harakatning ajralmas qismi bo‘lib, qahramonlar xarakterini ochishda, konfliktni rivojlantirishda va asarning umumiy g‘oyaviy-estetik ta’sirini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Edige” musiqali dramasi murakkab kompozitsion tuzilish, chuqur g‘oyaviy mazmun va musiqiy vositalarning mohirlik bilan qo‘llanilishi orqali insoniyatning abadiy qadriyatlari – adolat, sadoqat va jasoratni tarannum etadi. Mazkur asar orqali qoraqalpoq musiqali dramasi rivojida xalq og‘zaki ijodi, xususan qahramonlik ruhidagi asarlar muhim ahamiyatga ega ekanligi o‘z isbotini topadi.

Qoraqalpoq xalq ogʻzaki ijodi, jumladan qahramonlik dostonlari, xalqning azaliy estetik va maʼnaviy qadriyatlarini oʻzida jam etgan maʼnaviy meros hisoblanadi. Uzoq yillardan buyon "Alpomish" dostoni oʻzbek va qoraqalpoq xalqining maʼnaviy boyligi sanalib kelinadi. "Xalqning maʼnaviy mulki boʻlgan doston mazmuni va badiiy-gʻoyaviy yoʻnalishdagi umuminsoniy gʻoyalar – xalq birligi, tinchlik, ona vatanga hurmat va muhabbat, yurt ozodligi uchun insonlarni ogoh boʻlishga chorlaydi"[1].

Qoraqalpoq adibi Najim Davqarayev qahramonlik ruhidagi "Alpomish" musiqali dramasini kompozitor V.Shafrannikov bilan hamkorlikda yaratadi. Mazkur musiqali drama 1942-yili rejissyorlar Javod Obidov va Toʻresh Allanazarovlar tomonidan sahnalashtiriladi. 1944-yilga kelib "Alpomish" musiqali dramasi T.Allanazarov tomonidan qayta sahnaga olib chiqiladi.

Xalq jirovlari asosida dostonni qayta-qayta sahnalashtirilishida, tomoshabinlarning sevimli spektakllariga aylanishida Y.Mamutov – Alpomish va T.Rahmonova – Gulbarchin obrazlari ijrosi muhim ahamiyatga ega boʻldi. Tomoshabinlar talabidan kelib chiqqan teatr jamoasi 1961-yili "Alpomish" musiqali dramasiga yana qayta murojaat qiladi. Bu safar spektaklning sahnaviy umri uzoq boʻlmaydi. Teatr repertuaridan tez fursatlarda tushib qoladi. Sababi, "rejissyor, Oʻzbekiston xalq artisti Yoʻldosh Mamutov musiqali dramaning sahnaviy talqiniga jiddiyroq oʻzgartirish kiritolmaydi"[2].

T.Adambayeva oʻzining tadqiqotlarida "Alpomish" musiqali dramasi haqida "Alpomishning boshqa ariyalarida melodik nafasining kengligi, uning xalq kuylariga yaqinligi, ansambl esa xorlarga moʻljallanganligi, sahnalarida qahramonning qarindosh xalqi bilan mustahkam birligini ifodalovchi sahnalar muvaffaqiyatli ochib berilgan. Rejissyor ham, aktyor ham Alpomishning ichki sabr-toqati va kechinmalarini ochib berishga harakat qilib, maʼnaviy dunyosining boyligini, insoniyat kelajagi uchun, xalqni birlashtirishdagi ezgu maqsadlarini chuqur ochib berishga harakat qiladi", deb taʼkidlab oʻtadi[3].

2007-yili Qoraqalpoq teatrining badiiy rahbari, Oʻzbekiston xalq artisti Najimatdin Ansatbayev "Alpomish" musiqali dramasini xalq urf-odatlari, milliy qadriyatlarga tayangan holda sahnalashtirdi. Rejissyor musiqiy asar mazmuni va gʻoyasiga hamohangligini taʼminlashga, qahramonlar ruhiyatini ochib beradigan, milliyligini taʼminlaydigan musiqiy materiallarni yangilashga, qoraqalpoq xalqining boy xalq musiqasi asosida milliy ruh bilan boyitishga harakat qildi. Bu masalani hal qilishda unga qoraqalpoq operasi va baletining muallifi, kompozitor Najimatdin Muhammedinov hamkorlik qildi. N.Muhammedinov spektakl uchun V.Shafrannikov yozgan musiqalarning ayrimlarini saqlab qoladi. Spektakl uvertyurasi, Boysarining qalmoq yurtiga koʻchish haqidagi qaroridan norozi xalqning ruhiyatiga mos xor, Alpomish, Gulbarchin, Oqbilak, Boysari, Koʻkaman ariyalari, ariya, duet va xorlarning milliy ruh, milliy koloritga boyligi, xalqchilligidan dalolat beradi.

Xalq ogʻzaki ijodi asosida yaratilgan "Gʻarib oshiq" spektaklida sevgi, sadoqat, vafo, mehr-oqibat singari insoniy tuygʻular kuylanadi. Mualliflar A.Begimov va

---

[1] Allanbayev R. Qoraqalpoq musiqali dramalarida tarixiy mavzuning yoritilishi (Alpomish musiqali dramasi misolida) // International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. – Tashkent, 2025. Volume: 5 Issue: 03. – P. 1-4.

[2] Баяндиев Т. Қорақалпоқ театри тарихи. – Тошкент: ЎзДСИ, 2011. – Б. 139.

[3] Adambaeva T. Qaraqalpaq sovet muzıkasınıń tariyxınan. – Nókis: "Qaraqalpaqstan", 1985. – B. 47.

T.Allanazarovlar dostonning asosiy syujet liniyasini saqlab qolgan holda, unga yangi dramatik tus beradi, qahramonlar obrazini chuqurlashtirib, voqealarni sahnaviy talqin uchun moslashtiradi.

“G‘arib oshiq” dramasida musiqa asarning ajralmas qismi bo‘lib, dostonlarga xos bo‘lgan afsonaviylik, teranlik va jo‘shqinlik musiqiy partituralarda badiiy obrazli namoyon bo‘ladi. Milliy kuylar, maqomlarga asoslangan ohanglar, xor, ariya va duetlar spektaklning badiiy-emotsional ta’sirini kuchaytiradi, qahramonlarning ichki olami, iztirobi va orzu-umidlarini yanada ta’sirliroq namoyon qiladi. Musiqa, oddiy fon bo‘lmay, dramatik harakatning muhim elementi, qahramonlar ruhiy holatining ifodachisi bo‘lib xizmat qiladi.

Kompozitor O.Xalimov musiqasi va rassom B.Kameniyevning sahna bezaklari spektaklning muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim omillardan bo‘lgan. Tarixiy va afsonaviy mavzudagi musiqali dramalar millat qahramonlari, ularning hayot va ijod yo‘llarini sahnaga olib chiqish o‘tmish va kelajak haqida xulosalar chiqarish imkonini yaratdi. Ezgulik, mehr-muhabbat, mas’uliyat va burch, odamiylik kabi hislatlarni o‘zida jamlagan afsonaviy siymolar obrazlari millat tafakkurini uyg‘otish, yangicha dunyoqarashni shakllantirish va kelajak avlodni ajdodlar merosi bilan tanitishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo‘limi **“Komediya spektakllarida milliy o‘ziga xoslik”** deb nomlanadi. Qoraqalpoq musiqali dramasining shakllanishi va rivojlanishida komediya janri muhim ahamiyat kasb etib kelgan. “Komediya san’ati” deganda nafaqat adabiy asos (ya’ni dramaturgiya), balki sahnaviy talqin (ijro, rejissura, ssenografiya va hokozo) ham tushuniladi. Zero, bundan oldin qo‘llanilib kelingan “kulguchilik”, “sahna hajvchiligi” kabi atamalar manashu murakkab birlikni ifoda qilolmas edi”[1]. Qoraqalpoq komediyasi o‘tmishda og‘zaki shakllarda, asosan ijrochilik san’atida yashab kelgan. Teatr jamoasi komediya janrigaa yengil yelpi, shunchaki ko‘ngilochar vosita tarzida emas, balki A.Qodiriyning “Komediya degani nima to‘g‘ri kelsa, shundan kulavermak emas, balki o‘zining tub shartlariga muvofiq etib kulmak...”dir degan fikrlariga monand har bir spektaklga jiddiy yondashib keldi.

Komediya janridagi musiqali dramalarda musiqa shunchaki fon emas, balki voqealarni chuqurlashtiruvchi, qahramonlar ruhiyatini ochuvchi va muammolarni bo‘rttirib ko‘rsatuvchi muhim badiiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Qo‘shiqlar, ariyalar va musiqiy interlyudiyalar orqali tomoshabin voqealarga guvoh bo‘lishi bilan birga, qahramonlarning ichki kechinmalariga sherik bo‘lib, ularni kuzatadi. Komediya janridagi musiqali dramaning estetik imkoniyatlari tufayli, ijtimoiy muammolar oddiy faktik bayondan ko‘ra tomoshabinga kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi.

Qoraqalpoq musiqali komediyalarining o‘ziga xos jihatlari, zamonaviy hayotiy voqelikni, dolzarb ijtimoiy-axloqiy muammolarni aks ettirgan U.Gajibekovning “Arshin mal alan”, Hamzaning “Maysaraning ishi”, S.Xo‘janiyozovning “Suymaganga suykalma”, Hamid G‘ulomning “Toshbolta oshiq”, T.Jumamuratovning “Qizlar hazili”, T.Seyitjanovning “Notinch to‘lqinlar”, “Qora ko‘zli dilbar”, B.O‘teboyevning “Injiqning muhabbati” kabi spektakllarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mazkur spektakllarda qoraqalpoq teatrining komediya orqali jamiyatdagi mavjud illatlarni, insonlararo munosabatlardagi ziddiyatlarni, oilaviy

[1] Қодирова С. Комедия санъати тарихи. – Тошкент: Санъат, 2008. – Б. 4.

muammolarni va shaxsiy kechinmalarini chuqur va haqqoniy tasvirlashga intilganligi namoyon bo‘ladi.

Rejissyor T.Allanazarov tomonidan sahnalashtirilgan Hamzaning “Maysaraning ishi” spektakli satirik va lirik yo‘nalishlarda talqin topdi. T.Allanazarov musiqali komediyada xalq vakillarining samimiyligi, hozirjavobligi, aqli va iqtidorini namoyon qilishga harakat qiladi Rejissyor spektaklda badiiy yaxlitlikni ta’minlashga harakat qildi. “Maysaraning ishi” musiqali komediyasida erishilgan ijodiy yutuq, ikki turuppaning yaxlit holda birlashishi hamda mushtaraklikligining samarasi bo‘ldi. Mazkur musiqali komediya eski va yangi truppaning ijodiy hamkorligida yaratilgan dastlabki yirik asarlardan bo‘ldi. Asosiy rollarni S.Qoraboyeva, Y.Mamutov, Z.Zaripov, I.Shodiyev kabi tajribali va yosh ijodkorlar ijro etishdi. Mahoratli, sahna tajribasiga ega aktyorlar imkoniyati yoshlarning ijodiy izlanishlari bilan uyg‘unlashdi. Bu uyg‘unlashuv qoraqalpoq musiqali drama san’atining rivojida, xususan musiqali komediyalarning ommalashuvida muhim ahamiyat kasb etdi.

Milliy dramaturgiyaning rivojiga Hamzaning mazkur komediyasi qoraqalpoq dramaturglariga mavzuga yondoshuv, voqealarni aniqlash, xarakter belgilash, konfliktni to‘g‘ri tasvirlay olish mahoratini o‘rgatdi va shu bilan birga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Dramaturg S.Xo‘janiyozovning “Suymaganga suykalma” asari qoraqalpoq musiqali dramasi rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatti.

“Suymaganga suykalma” musiqali komediyasida hayotiy voqeliklar, insoniy munosabatlar kulguli, musiqiy va hajviy vositalar orqali aks ettiriladi. Spektaklda dolzarb ijtimoiy va maishiy muammolar, qahramonlar xarakterlaridagi nuqsonlar, shaxsiy va oilaviy ziddiyatlarni yengil hazil, satira va parodiya vositalarida tasvirlash orqali ifodalanadi. Quvnoq kuy va qo‘shiqlar spektaklga dinamik ruh bag‘ishlaydi, qahramonlarning hissiy holatini ifodalashga yordam beradi va ba’zi kulguli vaziyatlarni yanada yorqinroq ko‘rsatadi. Musiqiy partiyalar asarning umumiy ohangini belgilaydi va uning janriy xususiyatini to‘laqonli namoyon etadi.

Qoraqalpoq musiqiy dramalari, xususan musiqiy komediyalar o‘zida zamonaviy ijtimoiy-axloqiy muammolarni aks ettirishi bilan tomoshabinni nafaqat kuldiruvchi, balki hayot haqida chuqur mushohadaga chorlovchi, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va mavjud muammolarga yechim topishga undovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchi bob **“Qoraqalpoq musiqali dramasida zamonaviy tendensiyalar”** deb nomlangan bo‘lib, u ham ikki bo‘limni o‘z ichiga oladi. **“Musiqali dramalarda zamondosh obrazining sahna talqinlari”** nomli birinchi bo‘limda qoraqalpoq musiqali dramalari zamondoshlar obrazini yaratishga bo‘lgan intilishlari xususida so‘z boradi. Qoraqalpoq musiqali drama san’ati yuzaga kelgan davrdan bugungi kunga qadar jamiyat va insonlar ongi-tafakkuridagi o‘zgarishlarni his qilgan holda, davr kishilari, zamondoshlar obrazlarini sahnaga olib chiqishga harakat sezilib turdi. Vatanparvarlik, burch, sadoqat, mehr-muhabbat singari chin insoniy tuyg‘ularni ulug‘lash, poraxo‘rlik, qalloblik, sotqinlik singari illatlarga qarshi kurash g‘oyasi aks etgan spektakllar teatr repertuaridan munosib o‘rin egalladi. Sahnada zamondosh obrazini yoritish masalasi doimo yetakchilik qilib keldi. Spektakllarda yangi, baxtli hayot, qoraqalpoq ayollarining asriy qullikdan qutilib, ozodlikka erishish orzusi spektakllarning asosiy badiiy-g‘oyaviy mazmun-mohiyatni tashkil qildi.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab qoraqalpoq musiqali drama san’ati ijodkorlari yangi hayot, yangi davr, yangi jamiyat va yangi insonlarning o‘y-fikrlari,

orzu-umidlari, ruhiy va ma'naviy olamini badiiy barkamol, his-tuyg'ularga boy, tomoshabinlarni zamon shiddatini anglash, mushohadaga undovchi asarlar sahnalashtirishga kirishdi. Ayni shu davrda sahnalashtirilgan Qoraqalpog'iston xalq shoiri, Berdaq nomidagi davlat mukofoti laureati K.Raxmanov qalamiga mansub "Yor diydori" musiqali dramasi milliy sahna san'atida muhim o'rin egalladi. Kompozitor Q.Zaretdinov bilan hamkorlikda yaratilgan ushbu spektakl tomoshabinni bugungi Qo'ng'irot voqeliklariga olib kirib, muhabbat, sadoqat va hayotiy sirlar haqida chuqur mushohadaga chorlaydi.

Asarda bugungi kun insonlarining kundalik hayoti, ularning orzu-umidlari, to'siqlarga qarshi, kurashi ichki shaxsiy kechinmalari badiiy obrazlarda tasvirlanadi. Spektaklda jamiyatdagi dolzarb masalalar, kishilar o'rtasidagi munosabatlarning nozik jihatlari, axloqiy qarashlarning keskin to'qnashuvi musiqiy-dramatik vositalar orqali ifodalanadi.

"Yor diydori" dramasida musiqa nafaqat dramatik harakatni rivojlantiradi, balki qahramonlar (Baxmal, Kiyikboy, Ipak, Shamurat va boshqalar)ning ichki dunyosini, ularning quvonch va qayg'ularini, umid va iztiroblarini anglashga yordam beradi. Musiqiy ohanglar, qo'shiqlar va vokal partiyalar lirik dramatizmga boy bo'lib, tomoshabinning asar qahramonlariga bo'lgan munosabatini oshiradi va ularning taqdiriga sherik qiladi.

Spektakl qahramonlari xarakteri, his-tuyg'ularining to'laqonli namoyon bo'lishida musiqa asosiy vosita hisoblanadi. Ipakning o'zini maqtab aytgan qo'shig'i ("men bir qizman, men bir qiz") uning xudbin va maqtanchoq xarakterini ko'rsatadi. Kiyikboyning "Shumi muhabbat yuragimni kuydirgan" qo'shig'i uning Maqpalni yo'qotishdan chekkan azobini va muhabbati sofligini ifodalaydi. Maqpalning "seni umit desip sibirlar samal" ariyasi esa uning ichki kurashi, sevgisidan kechishga majburligi, qiyinchiliklar bilan bog'liq iztiroblarini ko'rsatadi.

Qoraqalpoq teatrida sahnalashtirilgan, zamondoshlar orasida tez-tez uchrab turadigan, davrning dolzarb muammolari aks etgan "Vijdon" musiqali dramasida insoniy munosabatlarning nozik qirralari, axloqiy tanlovlar va vijdon azobining og'riqli nuqtalari namoyon bo'ladi. Jamiyatdagi dolzarb muammolar, xususan, insonning o'z-o'ziga va jamiyatga bo'lgan munosabati, adolat, halollik, vijdon tuyg'ulari haqida so'z boradi. Asar jamiyatda ba'zan uchraydigan adolatsizlik, mansabparastlik, xiyonat kabi illatlarning inson ruhiyatiga salbiy ta'siri hamda har bir jarayonda vijdon amri hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi haqida hikoya qiladi.

"Vijdon" musiqali dramasi tarbiyaviy ma'no va ta'sirchan ijroga ega bo'lib, tomoshabinni o'zining ichki dunyosiga nazar solishga, hayotiy qadriyatlarni ehtiyotlashga undaydi. Ushbu asar o'zining dolzarb mavzusi, yorqin obrazlari va dramatik yechimi bilan muhim ma'naviy-axloqiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu spektaklda musiqa shunchaki fon emas, balki qahramonlarning ichki dunyosi va kechinmalarini namoyon etishda, voqealarni hayajonli tasvirlashda, asarning tomoshaviyligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

K.Raxmanovning "O'lim jazosi" musiqali dramasini O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti T.Qayipnazarova sahnalashtirdi. Spektakl musiqalarini Zulfiya mukofoti sovrindori, yosh kompozitor A.Toremuratova bastaladi. Asar tragediya janrida bo'lib, unda inson tuyg'ulari sevgi, qasos, hayot uchun kurashni

asosiy mavzu qilib olinadi. Spektaklda yoshlarning hayoti, turmush tarzi badiiy obrazlarda yoritiladi. Pyesa qahramonlarning fojiasi bilan yakun topadi.

Uchinchi bobning ikkinchi bo‘limi **“Qoraqalpoq milliy operasining yuzaga kelishi”** deb nomlangan. Qoraqalpoq milliy opera san’ati o‘ziga xos tarixga ega bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishida Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri muhim o‘rin tutadi. Qoraqalpog‘istonda opera san’ati uzoq vaqt davomida musiqali dramalar va xalq san’ati an’analari ta’sirida shakllandi.

Qoraqalpoq teatri 1987-yilda “Ajiniyoz” nomli ilk milliy operasini sahnalashtiradi. “Ajiniyoz” operasidan so‘ng, Qoraqalpoq musiqali teatri repertuari milliy va jahon operalari bilan boyidi. “To‘maris” va “Guloyim” kabi milliy operalar, shuningdek, “Maysaraning ishi” va “Aleko” kabi jahon klassikasi namunalari sahnalashtirilgan. Shoir Berdaq hayoti va ijodiga bag‘ishlangan “Xalq uchun” operasi tomoshabinlar e’tiborini qozondi.

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston san’ati tarixida munosib o‘rin tutgan “Ajiniyoz” operasi kompozitor N.Muhammeddinov tomonidan 1987-yilda yozildi. “Ajiniyoz” operasi xalqning ma’naviy qadriyatlari, tarixi va o‘ziga xos madaniyatini aks ettiruvchi muhim sahna asari hisoblanadi. Opera qoraqalpoq shoiri, mutafakkir va jamoat arbobi Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li hayoti va faoliyatiga bag‘ishlanadi. Asarda Ajiniyozning nafaqat shoir iste’dodi, balki uning adolat uchun kurashi, vatanparvarligi va xalqiga bo‘lgan cheksiz muhabbati yorqin tasvirlanadi. Spektakl romantik sevgi liniyasini tarixiy-ijtimoiy ziddiyatlar bilan uyg‘unlashtirgan, o‘zining murakkab dramaturgiyasi bilan ajralib turadi.

“Ajiniyoz” operasida qoraqalpoq xalqining milliy madaniyati, urf-odatlari, tarixi va turmush tarzi badiiy-musiqiy lavhalarda kuchli, ta’sirchan, emotsional obrazlar orqali talqin qilinadi.

Qoraqalpoq milliy opera san’ati rivojida kompozitor Qurbanboy Zaretdinov va libretto muallifi Kenesbay Karimov tomonidan yaratilgan “Xalq uchun” operasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Asar 2 aktli, 5 ko‘rinishli tarixiy opera bo‘lib, uning syujeti XIX asr oxiridagi (1898-1900-yillar) qoraqalpoq xalqining turmush tarzi va taniqli shoir Berdaq G‘arg‘aboy o‘g‘lining hayoti va faoliyatini aks ettiradi.

Opera qoraqalpoq xalqining ma’naviy qadriyatlari, adolatga bo‘lgan intilishi va zulmga qarshi kurashini chuqur musiqiy-dramatik shaklda ifodalaydi. “Xalq uchun” g‘oyasi asarning boshidan to finalga qadar asosiy leytmotiv (yetakchi g‘oya) sifatida namoyon bo‘ladi. Asar librettosi vokal ijrolarning rang-barangligi (ariya, rechitativ, ansambl, xor) bilan ajralib turadi. Qahramonlarning har biri o‘ziga xos vokal diapazonga ega bo‘lib, bu ularning xarakterini va ruhiy holatini yanada aniqroq ochib berishga xizmat qiladi.

“Xalq uchun” operasida aktyorlarning vokal diapazoni (masalan, bariton, tenor, soprano) qahramonlarning emotsional va ruhiy holatini namoyon etishga yordam beradi. Berdaq (lirik bariton) 70 yoshlardagi shoir. U asarning bosh qahramoni hisoblanadi. Uning ariya va duetlari qahramon xarakteridagi chuqur his-tuyg‘ular, qat’iyat falsafiy mushohadalar va xalqqa bo‘lgan qaynoq mehrini ifodalashga xizmat qiladi. U el-yurt dardi bilan yashaydigan, adolat uchun kurashadigan fidoyi inson, haqiqat kuychisi sifatida tasvirlanadi.

“Xalq uchun” operasi klassik yo‘nalish qoidalariga asoslangan bo‘lsa-da, u qoraqalpoq milliy musiqasiga xos ohang va motivlar bilan uyg‘unlashtiriladi.

Operada milliy cholg‘u asboblaridan foydalanish, xalq qo‘shiqchiligi ohanglarini xos uslublarni qo‘llash spektaklning tomoshaviyligini oshirishga xizmat qiladi. Universal opera san’ati va milliy sahna san’ati estetikasining o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida durdona orginal asar vujudga keladi.

“Xalq uchun” operasi klassik opera talablariga to‘liq javob beradi. Unda rechitativ, ariya, ansambl va xor kabi vokal shakllaridan mohirlik bilan foydalanilgan. Rechitativlar qahramonlarning dialoglarini tabiiy musiqiy nutq bilan ifodalashga xizmat qilsa, ariyalar qahramonlarning dunyoqarashi, xarakteri va ichki kechinmalarini tasvirlaydi. Xor esa asarning asosiy dramaturgik harakatlantiruvchi kuchi sifatida maydonga chiqib, xalqning quvonch va dardini, birligi va matonatini ifodalaydi.

Qoraqalpoq musiqali teatri san’ati qahramonlik dostonlariga, xususan, “Edige” kabi dostonlarga doimiy murojaati bilan bosqichma-bosqich mustahkamlanib borgan. Milliy dostonlar, musiqali drama va operalar uchun mustahkam g‘oyaviy va badiiy manba bo‘lib xizmat qilib kelgan. “Edige” dostonining musiqiy-dramatik talqini sifatida yaratilgan “Edige-To‘xtamish-Shoh Temur” operasi Qoraqalpoq musiqali teatri rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. 2023-yilda yaratilgan ushbu ikki aktli, besh ko‘rinishli tarixiy opera, qoraqalpoq bastakorlik maktabining milliy dostonchilik an’analari va zamonaviy opera san‘ati sinteziga bo‘lgan intilishining yorqin namunasi hisoblanadi.

“Edige” operasi yaxlit musiqiy shakl, tarixiy-qahramonlik, milliy ohanglar va zamonaviy opera san’ati uyg‘unligi mujassam bo‘lgan mustahkam dramaturgiya asosida vujudga keldi. Kompozitor Qurbanboy Zaretdinov va libretto muallifi Kenesbay Raxmanov dostonning asosiy g‘oyalarini saqlab qolgan holda, personajlarning ruhiy olamini, ular o‘rtasidagi ziddiyat va kurashni opera san’ati qonuniyatlari asosida tasvirlashga muvaffaq bo‘lishdi.

Libretto muallifi K.Raxmanov doston asosida XIV asr oxiridagi Oltin O‘rda va Movarounnahrda yuz bergan tarixiy voqealarni tasvirlaydi. Asarning dramatik asosini uchta muhim tarixiy shaxs, adolatli Edige (dramatik tenor), zolim To‘xtamishxon (bas) va ulug‘ sarkarda Shoh Temur (bas-bariton) o‘rtasidagi ziddiyat tashkil etadi. Mazkur opera nafaqat tarixiy voqealarni aks ettiradi, balki adolat, qahramonlik, vatanparvarlik kabi umumbashariy g‘oyalarni ilgari suradi. Sahna asarida asosiy qahramonlar bilan birga, ularning taqdiriga ta’sir ko‘rsatuvchi yordamchi rollar (Qoraqosh, Qorasoch, Kenjembay kabi) va ommaviy sahnalar (no‘g‘aylar, biylar, askarlar) ham voqealar rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

“To‘maris” tarixiy operasida qahramonlarning ovozi, dramaturgik roli va ular orqali berilgan salbiy-ijobiy xarakterlar aniq belgilab olingan. To‘maris – dramatik soprano kuchli, ta’sirchan, keng diapazonli ovoziga ega bo‘lib, operadagi asosiy qahramon hisoblanadi. U jasur va dono ona, irodasi kuchli ayol, uning ariyalarida alam, g‘urur va ruhiy qat’iyat aks etadi. To‘marisning o‘g‘li Spargapis hissiyotga boy, tenor ovozga ega yosh sarkarda. U halol, jasur, lekin tajribasizligi tufayli tuzoqqa tushadi, vatani va onasining sha’nini saqlash uchun jonini fido qiladi. Ariyalarida og‘riq, kechirim so‘rash va fojiali o‘lim ifoda etadi. El og‘asi ovozi bas-bariton ovozli, gavdasi haybatli, mulohazakor ohangda so‘zlaydi. Voqealar davomida u xalq oqsoqoli, donishmand, og‘ir vaziyatlarda xalqni ruhlantiruvchi inson sifatida namoyon bo‘ladi.

“Kompozitor Q.Zaretdinov operada asosiy o‘rinni xorga beradi. Xorlar akapella, xoral, askarlar xori, tantanasi aralash xor yo‘nalishida ijro etiladi. Muallif qoraqalpoq milliy kuylarini opera janrida o‘rinli qo‘llaydi, jirov, o‘lanlar simfonik orkestr orqali ijro etiladi”[1]. Operada xor asarning ruhiy yo‘nalishini belgilovchi kuch hisoblanadi. Xorda ayollar va erkaklar ovozlari orqali turli sahnalarda farqli ruhiy holatlar yaratiladi (masalan, vokaliz, xorallarda iztirob, halovat, jasorat, marosimiy ohanglar). Xor sahnalari statik emas, aksincha harakatli, o‘zgaruvchan – bu orqali har bir bosqichdagi xalq holati (xursandlik, pushaymon, g‘am, g‘alaba) tasvirlanadi. Finalda xor orqali xalq g‘alabasi va To‘marisning jasorati, mardligi madh etiladi va bu asarning dramatik cho‘qqisini belgilaydi. “To‘maris” operasida xor oddiy fon emas, voqealarni harakatlantiruvchi, xalq ruhining ko‘zgusi, qahramonlik va iztirobning jo‘shqin ifodasi, musiqiy hamda dramaturgik asarning bosh tayanchi sifatida ifodalanadi.

Qoraqalpoq musiqali dramasi va opera san’atida aktyorlik san‘ati hamda vokal ifoda uyg‘unligi spektaklning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Bu ikki unsurning o‘zaro chambarchas bog‘liqligi va bir-birini to‘ldirishi asarning badiiy qimmatini oshirib, tomoshaviyligini ta’minlaydi.

XULOSA

“Qoraqalpoq musiqali drama san’atining tarixiy ildizlari, an’ana va zamonaviy tendensiyalari” mavzusidagi dissertatsiya ishini yozish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Qoraqalpoq teatrining qadimiy ildizlari, uzoq o‘tmishga borib taqaladi. XX asrga kelib yangi, zamonaviy shakldagi teatrning vujudga kelishi musiqali drama san’atining shakllanishiga zamin hozirladi.

2. Qoraqalpoq musiqali drama san’ati an’anaviy musiqiy uslub bilan bir qatorda, ko‘p ovozli tizimni joriy etish, milliy cholg‘u asboblar ansambli va simfonik orkestr uyg‘unligida spektakllar sahnalashtirish jarayonida shakllanib, rivojlanib bordi.

3. 1920-1940-yillar qoraqalpoq musiqali dramasi va dramaturgiyasi uchun sinovlar davri bo‘ldi. Bu davrda milliy, musiqiy an’analar asosida bir qator spektakllar sahna yuzini ko‘rdi.

4. 1950-1970-yillar Qoraqalpoq musiqali drama san’atining tarixida sezilarli o‘zgarishlari yuz berdi. Bu davrda teatrga iste’dodli bastakorlar, sozandalar, baletmeyterlar, rassomlar kirib keldi, vokalist aktyorlar voyaga yetdi. Xor va orkestr yanada takomillashdi.

5. Qoraqalpoq musiqali drama san’atida dastlabki sahnalashtirilgan spektakllar o‘zbek, rus kompozitorlari hamkorligida yaratilgan bo‘lsa, 1950-60-yillarda malakali milliy kompozitorlar etishtirib berdi.

6. 1970-80-yillar Qoraqalpoq teatrida professionallashuv jarayoni yuksaldi, musiqali spektakllarning salmog‘i orti.

7. Mustaqillikning ilk davridan boshlab tarixga, milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi, ulug‘ siymolarimiz haqida xolisona fikr aytish imkoniyati tug‘ildi. Amir Temur, Ajiniyoz, Edige, Berdaq, To‘maris, Spitamen singari qator buyuk alloma-ajdodlarimiz hayotiga bag‘ishlangan spektakllar sahna yuzini ko‘rdi.

---

[1] Nadirova A. Qaraqalpaq muzıka tariyxı. – Tashkent: “Sano-standart” baspası. 2018. – B. 227.

8. Bu davrda yangi davr kishilari, ilg‘or zamondoshlarimiz obrazlarini sahnaga olib chiqish harakatlari kuchaydi. Vatanparvarlik, burch, sadoqat, mehr-muhabbat tuyg‘ularini ulug‘lash, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, poraxo‘rlik singari illatlarga qarshi kurash g‘oyasi aks etgan spektakllar yetakchilik qildi.

9. Musiqali drama san’atida tarixiy va global mavzulardagi asarlar bilan yonma-yon, ijtimoiy-maishiy mavzulardagi komediyalar ham sahnalashtirildi. Ularda an’anaviy xalq musiqalari bilan birga, zamonaviy musiqa shakllari, ayniqsa Qoraqalpoq xalq ijodiyotining folklor-etnografik xususiyatlari ko‘zga tashlanadi, tarbiyaviy-axloqiy xususiyatlarga jiddiy e’tibor qaratildi.

10. Qoraqalpoq musiqali drama san’ati ko‘p yillik ijodiy izlanishlar natijasida orttirilgan tajribalar zamirida takomillashdi, dramaturglar, kompozitorlar kashf qilindi, aktyor-ijrochilarning mahorati charxlanib bordi. Qoraqalpoq Milliy operasi va baleti yuzaga keldi.

Tadqiqotdan olingan xulosalar natijasida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

professional musiqali teatr rejissyorlarini tayyorlash tizimini amaliyot bilan uzviylikda takomillashtirish;

yetuk rejissyor va aktyorlarning ijodiy tajribalari va o‘ziga xos uslublarini o‘rganish, ijodiy portretlar yaratishni kengaytirish;

yangi musiqali dramalar yaratish bo‘yicha maxsus oliy o‘quv yurtlari bilan O‘zbekiston teatr arboblari, Yozuvchilar, Kompozitorlar va bastakorlar uyushmalari hamda bevosita musiqali teatrlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, birgalikda “Musiqali teatr san’atining buguni va istiqbollari” mavzusida Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasini o‘tkazish;

teatr sohasining barcha komponentlarini tadqiq qilish bo‘yicha maqsadli amaliy grantlar olishga erishish.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.11/2025.27.12.San.02.01_ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИСКУССТВ И КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА

ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ ИСКУССТВ И КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА

АЛЛАНБАЕВ РУДАКИЙ ОРИНБАЕВИЧ

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ, ТРАДИЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ КАРАКАЛПАКСКОГО МУЗЫКАЛЬНО-ДРАМАТИЧЕСКОГО ИСКУССТВА

17.00.01 – Театральное искусство

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСКУССТВОВЕДЕНИЮ

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттест комиссии Республики Узбекистан за № B2025.2.PhD/San375.

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за № B2025.2.PhD/San375.

Диссертация выполнена в Государственном институте искусств и культуры Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме) размещён на веб-странице Научного совета (www.fineartins.uz), на Информационно-образовательном портале (www.dsmi.uz) и «ZiyoNET» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Ризаев Аманулла Зуфарович** кандидат искусствоведения, профессор
Официальные оппоненты:	**Кадирова Сарвиноз Мухсиновна** доктор искусствоведения, профессор
	Исмаилов Анвар Хамдамджанович доктор философии (PhD) по искусствоведению, старший научный сотрудник
Ведущая организация:	**Государственная академия хореографии Узбекистан**

Защита диссертации состоится «12» 11 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.11/2025.27.12.San.02.01 ___ при Государственном институте искусств и культуры Узбекистана, по адресу: 100164 город Ташкент, Мирзо Улугбекский район, ул Яланғач, дом 127 «А». Тел:(99871) 230-28-02; факс:(99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Государственного института искусств и культуры Узбекистана (номер регистрации 62 по адресу: 100164 г.Ташкент, Мирзо Улугбекский район, ул Яланғач, дом 127 «А». Тел:(99871)230-28-02; факс:(99871)230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz.

Автореферат диссертации разослан «29» 10 2026 года.

(реестр протокола № 29 от «29» 10 2026 года).

М.Т.Туляходжаева
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор искусствоведения, профессор

А.Т.Курбанова
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук (DSc), доцент

А.А.Умаров
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор социологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Происходящие в мире глобализационные, информационные, трансформационные процессы оказывают существенное влияние на совершенствование содержания, тематики и жанровых особенностей театрального искусства, в частности музыкальных драм. В современных музыкальных театрах наряду с музыкальными драмами развиваются оперы и мюзиклы, в которых наряду с мотивами любви и героизма в художественно-сценических интерпретациях проявляются и социально-бытовые темы. В музыкальных театрах актуальное значение приобретает сочетание национальных традиций с современными сценическими решениями, применение инновационных режиссерских подходов и сценическая интерпретация современных социальных тем.

В мировом искусствоведении преобладают исследования, направленные на изучение взаимодействия культур, трансформационных процессов музыкального театрального искусства, взаимного синтеза искусства Запада и Востока, гармоничного сочетания костюмов с современным дизайном, а также отдельных индивидуальных аспектов музыкального театра. В широком смысле, в музыкальном театральном искусстве наряду с национальными традициями наблюдаются инновационные, современные тенденции. Ощущается необходимость изучения музыкального театрального искусства на основе современных научно-методологических подходов, разработки научных основ инновационных режиссерских решений и цифровых технологий, переоценки художественно-эстетических и драматургических особенностей музыкальных спектаклей на основе современных подходов.

В условиях Нового Узбекистана национальное музыкально-драматическое искусство также выходит на новый этап своего развития, достигается разнообразие истории, теоретических аспектов, сценических интерпретаций, тем и жанров музыкальных драм. “Создание сценических произведений, отражающих дух сегодняшнего дня, волнующих людей, отражающих серьезные социальные проблемы, является одной из важнейших задач, стоящих перед театральными деятелями»[1]. В этом смысле приоритетным является выявление особенностей, основных направлений каракалпакского музыкально-драматического искусства, творческого опыта, возникшего в драматургии, режиссуре, музыке и актерском искусстве, пропаганда передовых образцов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, определенных в Законе Республики Узбекистан от 20 января 2021 года №ЗРУ-668 «О культурной деятельности и организациях культуры», Указе Президента Республики Узбекистан от 2 июня 2026 года №УП-103 «О комплексных мерах по дальнейшему развитию сферы культуры, искусства и литературы», Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 28 ноября 2018 года №ПП-4038 «Об утверждении Концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан», от 22 ноября 2024 года №ПП-

[1] Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. - // “Xalq so‘zi”, 2017, 4-avgust, №153 (6847). – B. 2.

399 «О мерах по повышению значения театров в культурной жизни общества и дальнейшей поддержке их деятельности», от 21 апреля 2026 года №ПП-150 «О мерах по совершенствованию системы управления в сфере культуры и искусства и стимулированию участия частного сектора» а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развитии науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В мировой театроведческой науке проведено множество научных исследований по изучению исторических корней и современных процессов театрального искусства. В частности, такими зарубежными исследователями, как Й.Четин, Ж. Даймонд, М.И.Гуртунжа, Э.Кафеци, В.Лу, Э.Ризли, П.Рамси, К.Сарох, Л.Сзяхуэй, Д.Уиттакер, Д.Яо проанализированы художественные и социально-критические тенденции в музыкальном театре, историко-эстетические особенности танцевальной культуры и сценического движения в музыкальном театре, методика подготовки актеров музыкального театра, вопросы формирования профессиональных компетенций и исполнительского мастерства, психологические аспекты деятельности исполнителей музыкального театра, сценическая практика, культурная трансформация музыкальных спектаклей и современные театральные процессы, выражение национальных традиций в сценическом искусстве, режиссерские решения и принципы постановки[1].

В исследованиях театроведов стран СНГ И.Гориной, А.Дидкопской, Д.Кумуковой, Н.Львова, Д.Мосиенко, Р.Романова, В.Стрижевского, Р.Султановой, А.Чепиноги, Е.Шадриной изучены теоретические и практические вопросы музыкального театра, музыкально-синтетическая концепция театра, театральный феномен, впечатляющая интонация в режиссуре и актерском

